

## YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA TRENINGLARNING AHAMIYATI

*Boltayev Alisher Ismailovich*  
*Samarqand viloyati Payariq*  
*tumani 82-maktabi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida treninglarning psixologik va pedagogik ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, kasbiy qiziqishlarni shakllantirish, qobiliyatlarni aniqlash hamda to‘g‘ri kasb tanlashga yordam beruvchi trening usullari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, trening, motivatsiya, qobiliyat, qiziqish, psixologiya, o‘quvchi, yoshlar.

### KIRISH

Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish zamonaviy ta‘lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda treninglar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular o‘quvchilarning o‘z qobiliyatini anglashiga va kelajak kasbini to‘g‘ri tanlashiga yordam beradi. Kasbga yo‘naltirish treninglari yoshlarning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu orqali ular o‘zlariga mos kasbni tanlashda aniqroq qaror qabul qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Psixologik jihatdan treninglar o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni oshiradi va kasbiy motivatsiyani shakllantiradi. Ishtirokchilar turli mashg‘ulotlar, testlar va amaliy topshiriqlar orqali o‘z imkoniyatlarini yaxshiroq tushunadilar. Trening jarayonida guruhviy mashg‘ulotlar muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar bir-biri bilan fikr almashadi, kasb tanlash bo‘yicha tajriba va qarashlarini muhokama qiladi. Bu esa ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, kasbga yo‘naltirish treninglari muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu ko‘nikmalar kelajakdagi kasbiy faoliyatda juda muhim hisoblanadi. Treninglar davomida psixologlar tomonidan kasbiy testlar va diagnostik metodlar qo‘llaniladi. Bu usullar orqali o‘quvchining qiziqish yo‘nalishi va intellektual imkoniyatlari aniqlanadi.

Oila ham bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi va to‘g‘ri yo‘naltirishi yoshlarning kasb tanlashida ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Kasbga yo‘naltirish treninglari yoshlarning ongli va to‘g‘ri kasb tanlashiga yordam beruvchi samarali psixologik-pedagogik vosita hisoblanadi. Kasbni to‘g‘ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi

muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'lig'ini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday holda har bir shaxs jamiyatga eng ko'p naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g'oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug'ullanayotgan ishini yaxshi ko'rsa, bundan u xursand bo'ladi, qoniqish hosil qiladi, zo'r tashabbus ko'rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi. Maktab o'quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas.

Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob'ektiv zaminga ega bo'lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda. Kasbga yo'naltirish – bu har bir individumning o'ziga xos individual xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'z kasbiy o'rnini topishi uchun shaxsga ta'sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir. U insonning kasbiy qiziqishi va imkoniyatlari hamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligiga erishishga yo'naltirilganidir.

Kasbga yo'naltirish – mohiyat va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlariga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo'naltirishni hal etish vazifalari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatga ega muammodir. Kasbga yo'naltirish insonning qobiliyati va iqtidorini maqsadli rivojlantirishda, uning kasb mahorati, ish qobiliyati va salomatligini asrashga imkon yaratadi hamda aholini ijtimoiy himoyalash va uning bandligi sohasidagi davlat siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kasbga yo'naltirish shaxsning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uning ijtimoiy va kasbiy faolligini oshirish hamda majburiy ishsizlikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Kasbga yo'naltirish tadbirlari inson tomonidan o'z kasbiy malakasini oshirishning qulay shakllarini izlash, ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuskorlik, intellektual va mehnat mustaqilligini rivojlantiradi.

### **Kasbga yo'naltirish bo'yicha 1-trening mashg'uloti**


Treningning borishi.

Boshlovchi: Bu dunyoda biz o‘zimiz yashayotgan tarixiy davrni, ota-onamizni yoki o‘sha bolalik davrimizni tanlay olmasligimiz mumkin. Boshqa narsalarni esa o‘z hayotimizda u yoki bu ma‘noda tanlashimiz mumkin. Va bu tanlovning eng ma‘suliyatlisi, bizning taqdirimizni belgilab beradigan kasb tanlash hisoblanadi. Kasbni to‘g‘ri tanlash uchun 3 ta jihatga etibor qaratish lozim:

Birinchidan, sizning kasbiy qiziqish va layoqatingiz qanday, biz buni qisqa qilib “hohlayman” deb ataymiz;

Ikkinchidan, o‘zingizning kasbiy muhim sifatlari bo‘lgan, ya‘ni salomatligingiz, malakangiz va qobiliyatingiz, ya‘ni sizning kasbiy yaroqliligingiz va imkoniyatlaringizni “uddalayman” deb ataymiz;

Uchinchidan, mehnat bozorida qanday kasblarga ehtiyoj mavjudligi, ularning qaysi biri istiqbolga ega, qanday kasblar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, bugungi kunda jamiyatga qanday kasblar “kerak”.



Agar bu uch komponentni birlashtirsakka kasbiy tanlov to‘g‘ri bo‘lib, insonning mehnat faoliyati tadqiqot natijalariga ko‘ra 100% ga samarali bo‘ladi. Agar tanlangan kasbga qiziqish bo‘lmasa 85% ni tashkil etadi. Agar qiziqish va qobiliyat, kasbiy faoliyatda ayrim malaka va ko‘nikmalar bo‘lmasa bu holatda foyda faqatgina 30% ni tashkil etadi.

Tanishish.

Boshlovchi: Hozir esa tanishib olamiz. Tanishishni “Mening kasbim” deb nomlaymiz. Bunda o‘zimiz yoqtirgan kasbni va shu kasb egasi uchun asosiy bo‘lgan sifatlarni aytib o‘tish talab etiladi.

Masalan; Mening ismim Sevara va menga shifokor kasbi yoqadi. Bu kasb egalarida insonparvarlik, ozodalikka rioya qilish hamda birovning dardiga sherik bo‘la

olish kabi sifatlar mujassamlashgan. Barcha ishtirokchilar aylana bo‘lib aytib chiqadilar. “Kasb” so‘zini eshitganingizda nimani tasavvur etasiz, boshlovchi javoblarni eshitib savol beradi o‘zining qiziqishi va qobiliyatiga mos kasbni tanlagan insonni qanday tasavvur etasiz.

Doskaga yoziladi:

Masalan:

- yaxshi tashqi ko‘rinish;
- o‘ziga ishongan;
- maqsadga intiluvchan;
- talabchan;
- ishbilarmon va xokozo.

Endi esa o‘z ishidan qoniqmaydigan, vaqtida qanday sohada ishlashini belgilab olmagan isonni tasavvur eting:

- o‘z ishidan qoniqmaydigan;
- asabiy;
- o‘ziga ishonmaydigan va xokazo.

Shuning uchun kasbni to‘g‘ri tanlash qaysi sohada faoliyat ko‘rsatishni anglab etish muhim xisoblanadi.

Relaksasiya: “Mol’(kuya)” o‘yini: Bir juda ziyoli saronjom-sarishta inson yashagan ekan, lekin unig kiyim javonida kuyalar paydo bo‘libdi. Ular shunday ko‘p ekanki.... Demak komanda bo‘yicha kuyalardan xalos bo‘lishga unga yordam beramiz.

### **Kasbiy o‘yin.**

“Faoliyatdan bir kun”.

O‘yining maqsadi: ishtirokchilar tomonidan u yoki bu mutaxassisning kasbiy faoliyatida o‘ziga xos bo‘lgan tomonlarini anglab etish.

Boshlovchi qaysi kasbni tanlashini guruh bilan muhokama qiladi.

Xozir biz birgalikda tanlagan kasb egasining ish kuni haqida hikoya tuzamiz. Bu hikoyamiz noananaviy bo‘ladi, ya’ni faqat turdosh otlardan foydalanamiz. Agar o‘qituvchi kasbini misol qilib olsak:

Qo‘ng‘iroq – tanaffus – dars – ikkichi – o‘quvchi – savol – javob - uch baho - o‘qituvchilar xonasi – direktor – janjal - a’lochi o‘quvchi – qo‘ng‘iroq – maktab – sinf - uy. Mazkur o‘zaro izchillikda keltirilgan so‘zlar asosida hikoya tuziladi.

Bu o‘yinda “fotomodel” kasbini (o‘zimizda) qanday bilamiz, shu bilan birga jamoaviy ijodkorlikka qobiliyatimiz borligini bilib olamiz.

O‘yinning muhim sharti: har bir ishtirokchi tanlagan kasb bo‘yicha otni aytadi va har bir ishtirokchi oldingi aytganlarini ham qaytaradi. Shundagina bizning hikoyamiz asar darajasiga etishi mumkin.

Boshlovchi birinchi soʻzni aytadi, boshqa ishtirokchilar esa navbat bilan oʻzlaridan oldingilarining soʻzlarini takrorlab undan soʻng esa oʻzining variantini aytadi. Mashgʻulot soʻngida bitta ishtirokchi aytilgan soʻzlar ishtirokida tanlangan kasb haqida tugallangan hikoya tuzadi.

“Alfavit qatori”.

Ishtirokchilar qisqa vaqt ichida bir qatorga shunday joylashishlari kerak-ki ularning ismlari alfavit tartibida boʻlsin.

Keyingi mashqimiz “Sovgʻa” deb nomlanadi.

Mashq davomida;

1. Guruh bilan qanday kasbligi, jinsi va yoshi aniqlab olinadi.
2. Har bir ishtirokchi oʻylashi uchun 30 soniya vaqt ajratiladi.
3. Navbat bilan sovgʻaning nomi aytiladi (bunda boshlovchi yoki ishtirokchi).

Koʻrsatma: tasavvur qiling bizning umumiy doʻstimiz bor va u bizni tugʻilgan kuniga taklif qildi. 30 soniya ichida har birimiz unga sovgʻa tanlashimiz kerak. Bunda uchta shartga rioya qilinadi. 1-shart, sovgʻa uning kasbiga qandaydir bogʻliq boʻlishi kerak; 2- shart, sovgʻa antiqa boʻlishi, yaʼni noodatiy, quvnoq. Bu inson juda hazilkash yumorga boy inson, agar unga shunchaki oddiy sovgʻa olsangiz, u xafa ham boʻlishi mumkin. 3- shart, sovgʻa qimmat boʻlmasligi kerak.

Relaksasiya.

Doira boʻlib turib olamiz. Boshlovchi oʻrtada turadi, ishtirokchilar raqamlarni aytib, oʻzlarining raqamlarini eslab qolishlari kerak boʻladi, boshlovchi 2 ta raqamni aytadi. Raqamlarni aytgan ishtirokchilar kaftlari bilan tizzalariga uradilar “oy-oy-oy” deb tezda oʻrinlarini almashtiradilar. Boshlovchi ulardan birining oʻrnini egallashga ulgurishi kerak, agarda kimda-kim ulgurmasa boshlovchi boʻladi.

**Treningni yakunlash.** Hamma ishtirokchilar oʻtirib oladilar. Boshlovchi: mana hozir har birimiz tanishib oldik, guruh boʻlib ishladik, kayfiyatimiz koʻtarildi. Mana shu kayfiyatda tarqalish uchun bir-birimizga iliq soʻzlar aytib xayrlashaylik.

Navbat bilan qoʻliga koptok olgan ishtirokchiga boshqalar iliq soʻzlarni aytadilar. Mana bugun juda yaxshi ishladik. Endi har birimiz oʻzimizga yaxshi tilaklarni bildiramiz.

Qogʻozga quyosh rasmini chizing va rasmning oʻrtasiga oʻzingizning ismingizni yoki oʻzingizning portretingizni joylashtiring.

Chizilgan quyoshning nurlariga boshqa ishtirokchilar tomonidan bildirilgan tilaklarni yozib chiqing. Quyosh nurlari imkon qadar koʻp boʻlishiga eʼtibor qarating.

Xayrlashish. Endi hammamiz oʻzimizni olqishlab qoʻyamiz, bunda “dirijyor” oʻyinidan foydalanamiz. Dirijyor men boʻlaman, siz esa musiqachilarsizlar, musiqani endi qarsaklar bilan chalamiz.

## Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha 2-trening mashg‘uloti

“Kasblar zanjiri”.

Maqsad: turli xil kasblar va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, mehnat faoliyatining umumiy va ayrim turlari haqida ma’lumot berish hamda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish.

Mashg‘ulot sharti:

Mashg‘ulot guruh xonasida o‘tkaziladi. Qatnashuvchilar soni 6-8 nafardan 10-15 nafargacha bo‘lishi mumkin. Mashg‘ulot davomiyligi 7-10 daqiqadan 15 daqiqagacha.

Mashg‘ulotning borishi:

Hozir biz sizlar bilan “Kasblar zanjiri”ni hosil qilamiz. Men birinchi kasbni aytaman, siz esa, o‘xshashlik tomoni bor bo‘lgan navbatdagi kasbni aytib o‘yinni davom ettirasiz.

Masalan: metallurg kasbga o‘xshashlik tomoni bo‘lgan oshpaz kasbi, eng asosiysi, ishtirokchilar kasblar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni aytishi va boshqalar uni tushunishi kerak. Misol uchun, metallurg bilan oshpaz kasbining o‘xshashlik tomonlari, ikkalasi ham yuqori haroratli pechlarda, o‘t bilan ishlaydi.

Olib boruvchi navbat bilan quyidagi yo‘nalishda aniqlovchi savollarni o‘rtaga tashlaydi:

“Sizlar aytayotgan kasblarning, oldingi aytilgan kasblar bilan o‘xshashlik tomonlari bormi?” Bunda shu narsa ko‘zda tutiladiki aytilgan kasbning to‘g‘riligiga, guruh qatnashchilari tomonidan ishonch hosil qilinishi kerak.

O‘yinni muhokama qilish vaqtida, qatnashuvchilar diqqatini turli xil kasblar o‘rtasida umumiy o‘xshashliklar uchrashi mumkinligiga jalb qilish kerak. Misol uchun: o‘yinning boshida metallni qayta ishlash bo‘yicha kasb aytilgan bo‘lsa (yuqoridagi misol), o‘yin o‘rtasida – avtotransport bilan bog‘liq bo‘lgan kasb, o‘yin oxirida balet bilan bog‘liq bo‘lgan kasbga bog‘lanadi. Buni tasdiqlash uchun “Kasb zanjiri” o‘yinidan misol keltiramiz:

Metallurg – qassob – slesar’ (bular ham – kesadi, lekin metallni emas) - avtoslesar’ – taksist – estarada janri bo‘yicha qiziqchi (bular ham boshqalar kabi jamoa bilan muomala muloqotida bo‘ladi) – drama teatri artisti – balet artisti xok...). Turli xil kasblar o‘rtasidagi o‘xshashlikni boshqa kasblarda ham ko‘rish mumkin. Siz tanlagan kasbingiz orqali boshqa kasblarni ham o‘rganish imkoniyati tug‘iladi.

O‘yin yumor ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin. Misol uchun trolleybus haydovchisi bilan Oliy ta’lim muassasidagi professorning o‘xshashlik tomonini olib ko‘radigan bo‘lsak, har ikkalasi ham jamoatchilik joyida chiqish qiladi, hatto trolleybus haydovchisi ko‘p odamlar jamoasi bilan muloqot qiladi. Agar o‘quvchilar

kasblar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikni tahlil qilishni o'rganishsa, bu o'yinning natijalari bo'layotganidan dalolat beradi.

"O'ylab top" o'yini.

O'yinning maqsadi: Inson shaxsi va tanlagan kasbining mos tushishi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, kasblarning turli-tumanligi to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash.

O'yinning borishi: Boshlovchi "bosh qahramon" sifatida, bir ishtirokchini taklif etadi. U boshqa ishtirokchilardan yashirin ravishda 5ta kasbning nomini, o'ziga ma'ul bo'lgan tartibda yozadi va boshlovchiga beradi.

Boshqa ishtirokchilar 3 tadan guruhlariga bo'linadilar har bir guruh muhokama natijasida "bosh qahramon" ning qiziqishlariga mos tushadigan 5 ta kasbni tanlashi va yozishi kerak.

Kasblar yozilgan varaqlar "bosh qahramon"ga beriladi va ular bir guruh tomonidan topilgan kasblarni sanaydi va g'olib-guruh aniqlanadi. "Bosh qahramon" va g'olib guruh tomonidan tanlangan kasblar nomi aytiladi.

Kelgusi muhokama jarayonida g'olib bo'lgan guruh vakillari boshqa ishtirokchilarga, nima uchun aynan shu kasblarni tanlaganliklari va bu kasblar bosh qahramonning qiziqishlariga, xarakteriga va qobiliyatlariga qay darajada mosligi haqida gapiradilar. O'z navbatida, "bosh qahramon" o'zi va g'olib guruh tanlagan kasblar haqida o'z fikrini bildiradi. Bundan tashqari, boshqa ishtirokchilar tanlagan kasbi bo'yicha bilim olishi va kelgusi mehnat faoliyatida unda qanday sifatlar bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlarini bildiradilar. Boshqa ishtirokchilar ham "bosh qahramon" tanlagan kasbni va uning bosh qahramonning individual xususiyatlariga mos kelishini muhokama qiladilar, unga va g'olib bo'lgan guruh vakillariga savollar beradilar.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda treninglar muhim psixologik-pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu treninglar orqali o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va kasbiy moyilliklari aniqlanadi hamda ularning ongli ravishda kasb tanlashiga yordam beriladi. Trening jarayonlari yoshlarda mustaqil fikrlash, o'ziga ishonch, qaror qabul qilish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, kasbga yo'naltirish treninglari orqali yoshlarda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabat, mas'uliyat hissi va motivatsiya shakllanadi. Psixolog, pedagog va ota-onalarning hamkorligi esa bu jarayon samaradorligini yanada oshiradi. Umuman olganda, zamonaviy trening texnologiyalaridan samarali foydalanish yoshlarning to'g'ri kasb tanlashi, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi va jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T., 2004.
2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiya. T., 1998.
3. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. T., “O‘qituvchi”, 1970
4. G‘oziev E. Psixologiya. T., “O‘qituvchi”, 1994
5. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., “O‘qituvchi”, 1976

